

Navbatdagi seminar-trening

Institutning “Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrasida tashabbusi bilan 2019 yil 25 - yanvar kuni 8-ma’ruzalar zalida “QSXEА” fakultetining 3-kurs talabalari hamda kafedra magistrantlari ishtirokida Krakov texnologiya universiteti tadqiqotchisi va kafedra professori t.f.d. Tursunov Obidjon Boboqulovichning “BIO-ENERGY” mavzusidagi seminar-treningi tashkil etildi. Seminar-treningni tashkil etishdan maqsad, talabalarga bioenergiya haqida batafsil ma’lumot berish, shuningdek, t.f.d. prof. O.B. Tursunovning ushbu sohada olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan talabalarni yaqindan tanishtirish.

Mazkur tadbirning birinchi qismida “Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrasida 1-kurs magistranti N.N. Abdug’aniyevning t.f.d. prof. O.B. Tursunov rahbarligida “Energiya olish maqsadida O’rta Chirchiq tumanidagi qattiq maishiy chiqindilar (QMCH) xarakteristikasini kompleks o’rganish” mavzusida olib borayotgan magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan shu kunlarda bajarayotgan ishlari to’g’risida ishtirokchilarga ma’lumotlar berib o’tdi. Tadbirning ikkinchi qismida t.f.d. prof. O.B. Tursunov bioenergiya to’g’risida batafsil to’xtalib o’tdi hamda ushbu sohada o’zi olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olingan natijalar bo’yicha qatnashchilarga ma’lumotlar berdi. Seminar-trening davomida talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollarga to’laqonli javob olishdi. Tadbir so’ngida kafedra mudiri D.B. Qodirov so’zga chiqib qatnashchilarning keyingi ilmiy faoliyatlariga omad va zafarlar tiladi.



Seminar koordinatori PhD D.B.Qodirov, Tadbir tashkilotchisi “ET va QTEM” kafedrasida magistranti N.N.Abdug’aniyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov